Аннотация. В статье рассматривается значимость повышения социальной роли банков на основе зеленых депозитов в условиях глобальных изменений климата, современных социально-экономических процессов и глобализации мировой экономики. Исследованы теоретические и практические аспекты данного вопроса. Также проведен анализ текущего состояния зеленых депозитов в банках и разработаны предложения и рекомендации по социальному развитию на их основе.

Ключевые слова: банки, зеленые депозиты, коммерческие банки, банковские депозиты, зеленая экономика, инвестиции, зеленые депозиты в коммерческих банках, социальное развитие банков, аналитические показатели.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan global iqlim o'zgarishlari, yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, shuningdek, xalqaro va mahalliy bozorlarda raqobatning keskinlashuvi sharoitida tijorat banklarining yashil depozitlar asosida ijtimoiy rolini oshirish, rivojlantirish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish, yashil depozitlar asosida qo'llaniladigan mexanizmlarni takomillashtirish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklariga oid ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi, bu esa sohani yanada erkinlashtirdi va insoniyat jamiyatidagi odamlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda uni erkin raqobat maydoniga olib keldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3620-sonli qarori tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish bo'yicha muhim chora-tadbirlarni belgilab berdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning iqlim o'zgarishiga bag'ishlangan 2023-yilgi sammitida: "Hozirgi davrda iqlim muammolari jahondagi barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda", deya ta'kidladi. Shuningdek, "... bu global xavflar keng mintaqamizda o'zining xatarli nuqtasiga yetib kelmoqda", deb qayd etdi. Bu esa hozirda mamlakatimizda ham mazkur yo'nalish dolzarb ahamiyat kasb etayotganini hamda kechiktirib bo'lmaydigan choralarni amalga oshirish zarurligini anglatadi.

Aytish joizki, bank depoziti (yoki bank omonati) hisob raqamlarini ochish uchun bank muassasasiga murojaat qilgan har bir shaxs bank depoziti yoki omonat nima ekanligini bilishi zarur. Aslida bank depoziti bank omonati bilan to'liq bir xil tushunchani anglatmaydi. Farqi shundaki, bankka qo'yilgan har qanday mablag'lar omonat hisoblanadi. Depozit esa nafaqat bankka qo'yilgan pul, balki ma'lum bir muddat saqlash uchun topshirilgan har qanday turdagi aktivlar bo'lishi mumkin. Bankka joylashtirilgan mablag'larning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, omonatni depozit deb atash mumkin, chunki pulni joylashtirish "depozit" tushunchasiga zid kelmaydi. Biroq depozitni omonat deb atash mumkin emas, chunki depozit tushunchasi faqat pul ma'nosini anglatmaydi.

Depozit moliyaviy aktivlarni bankda joylashtirish orqali foyda olish usullaridan biri, boshqacha qilib aytganda, daromad olish maqsadida qo'yilgan mablag'lar hisoblanadi. Ular qatoriga milliy va xorijiy valyutadagi pullar, qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallarni kiritish mumkin.

Umuman olganda, omonat yoki pulli depozit – bu pul mablag'larini muayyan muddatga bankka joylashtirish hisoblanadi. Bank esa qo'yilgan mablag'lardan tijoriy faoliyatda foydalanish uchun ma'lum muddatga foydalanadi va oldindan shartnomaviy kelishuvlar asosida belgilangan foizlar ko'rinishida qo'shimcha haq to'laydi.

Yashil depozitlar – bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, tabiat infratuzilmasini rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda banklarning moliyaviy resurs manbalarining shakllanishidir. Yashil depozitlar tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan barqarorlikni ta'minlashda banklarning muhim moliyaviy manbalari hisoblanadi. Bu esa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish kabi loyihalarning amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, banklar yashil iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Ular yashil investitsiyalar va eko-innovatsiyalarni moliyalashtirishda, barqaror rivojlanishni ta'minlashda hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashda ishtirok etadi.

Banklar yashil kreditlar berish orqali kichik va o'rta biznesni yashil texnologiyalarga investitsiya qilishga rag'batlantiradi. Shuningdek, samarali nazoratni amalga oshirish va banklarning ijtimoiy rolini oshirish orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda "yashil iqtisodiyot" atamasi xalqaro maydonda keng tarqalmoqda. Yashil iqtisodiyotga olimlar tomonidan turlicha ta'rif berilgan.

Amerikalik ekolog va iqtisodchi Herman Edvard "yashil iqtisodiyotning maqsadi iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishdir" (Herman, 1994), deya ta'kidlagan.

Avstraliyalik ekolog iqtisodchi olim Robert Costanza (2016) esa ekologik iqtisodiyot sohasida taniqli olim bo'lib, iqtisodiy tizimlarni ekologik tizimlar bilan integratsiya qilish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borgan. U yashil iqtisodiyotni "ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun mo'ljallangan iqtisodiy model" deb ta'riflagan.

Bag'dod universiteti professori Suaad Hadi Hassan Al-Taai (2021) yashil iqtisodiyotning eng muhim maqsadlaridan biri sifatida ushbu yo'nalishga to'sqinlik qiladigan omillarni bartaraf etish va unga erishishga xizmat qiluvchi siyosat hamda qoidalarni isloh qilish zarurligini ta'kidlagan.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, "yashil iqtisodiyot" – bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tenglikning yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keluvchi iqtisodiyotdir" (Shtayner, 2011).

Yashil iqtisodiyot bugungi kunda turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinsa-da, ularning barchasi negizida tabiatga zararli ta'sirlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash g'oyalari mujassam.

"Yashil iqtisodiyot" - bu odamlarning farovonligini oshiradigan va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan, atrof-muhit uchun xavflarni sezilarli darajada kamaytiradigan va ekologik, ijtimoiy rivojlanish va iqtisodiy o'sishning qulay o'zaro ta'sirini nazarda tutadigan iqtisodiyot tushuniladi¹.

1 Глобальный «зеленый» новый курс: доклад ЮНЕП. URL: http://greenlogic.by/content/files/GREENTRANSPORT/UNEP90_RUS.pdf (дата обращения: 14.03.2020); Навстречу «зеленой экономике»: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности.



Xalqaro amaliyotda “yashil banklar” faoliyatini yo’lga qo’yish “yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirishning istiqbolli yo’nalishi sifatida e’tirof etilmoqda².

Bir guruh iqtisodchi olimlarning fikriga ko’ra, “yashil banklar”ning moliya siyosati “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun zarur bo’lgan instrumentlarni yaratish imkoniyati hisoblanadi³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodchi olimlarning mavzuga doir yondashuv va qarashlarini tadqiq etish hamda ularga nisbatan mualliflik munosabatini bildirish asosida maqolaning ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlari, shuningdek, bugungi kunda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning ijtimoiy roli tahlil qilinib, maqolaning amaliy jihatlari shakllantirildi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil hamda farazni asoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirda bank sohasida rivojlanayotgan muhim tendensiyalardan biri yashil texnologiyalar bilan integratsiyalashuvdir. Ushbu yondashuv raqamli xizmatlarni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishni birlashtirish imkonini beradi.

Raqamli bank xizmatlari nafaqat mijozlarga qulaylik yaratish, balki yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo’llab-quvvatlashda ham muhim rol o’ynaydi.

Tijorat banklari ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun bir necha ustuvor yo’nalishda faoliyat olib bormoqda:

Energiya samaradorligi: bank infratuzilmasida energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish elektr energiyasi iste’molini optimallashtiradi.

Masofaviy xizmatlar va transport xarajatlarini kamaytirish: mijozlar bankka tashrif buyurish zaruriyati kamaygani sababli yo’l harakati kamayib, atmosferaga chiqindilar kamroq chiqmoqda.

Qog’oz hujjat aylanmasini kamaytirish: hujjatlarning raqamli formatga o’tishi qog’oz iste’molini sezilarli darajada kamaytirib, resurslarni tejashga yordam beradi.

Yashil investitsiyalar: tijorat banklari ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish orqali barqaror taraqqiyotga hissa qo’shmoqda.

Raqamli banking onlayn banking va mobil bankingning kombinatsiyasi bo’lib, raqamli bank xizmatlaridan foydalanishda ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga, jumladan transport xarajatlarini, inson resurslarini, qog’oz va boshqa tabiiy resurslar xarajatini sezilarli darajada qisqartirishga yordam beradi, shuningdek, vaqtni ham tejaydi.

Onlayn banking qurilmalardan bank veb-sayti orqali bank xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu mijozlarga balanslarni tekshirish va bank hisob raqamlariga kirish orqali ko’plab to’lovlarni to’lash imkonini beradi. Foydalanuvchilar o’zlarining onlayn banking portali orqali ko’plab banklarda kredit yoki kredit karta uchun ariza berish, depozit kabi qo’shimcha bank xizmatlarini amalga oshirishi mumkin.

Masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish turli bank operatsiyalarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksi hisoblanadi. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya. Bank xizmatlaridan foydalanishda masofaviy texnologiyalar mijozlarga yuqori qulaylik va bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida ortiqcha vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi. Masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari tizimida yangi hajmdagi va yangi shakldagi turli xizmatlarning yuzaga kelishiga sabab bo’ldi. Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o’rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Markaziy banking bank tizimini ekologik transformatsiyaga yo’naltirish bo’yicha siyosiy tashabbuslari ham so’nggi yillarda faollashgan. Bu borada tijorat banklari ekologik indikatorlarni baholovchi ichki tizimlarni shakllantirishga harakat qilmoqda. Biroq amaliyotda hali ko’plab banklarda ushbu yo’nalishdagi malaka, bilim va texnik imkoniyatlar yetarli darajada emas. Shu bois xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Jahon banki bilan birgalikda amalga oshirilayotgan pilot loyihalar bu bo’shliqni to’ldirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, yashil iqtisodiyotga o’tishda xususiy moliyalashtirishning yetishmasligi sharoitida tijorat banklarining faol ishtiroki strategik ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza

URL: http://old.ecocongress.info/5_congr/docs/doklad.pdf.

2 Pichler K., Lehner O. European Commission: New regulations concerning environmental and social impact reporting. ACRN Oxford Journal of Finance and Risk Perspective. 2017;6(1):1–54.; Архипова В.В. «Зеленые финансы» как средство для решения глобальных проблем. Экономический журнал Высшей школы экономики. 2017;21(2):312–332.

3 Bouma J.J., Jeucken M., Klinkers L., eds. Sustainable banking: The greening of finance. Abingdon, New York: Routledge; 2017. 480 p.; Schaltegger S., Burritt R., Petersen H. An introduction to corporate environmental management: Striving for sustainability. Abingdon, New York: Routledge; 2017. 384 p.



qilish, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va xalqaro investorlar ishonchini oshirishga ham xizmat qiladi.

Green Finance Platform natijalari va O'zbekistondagi tijorat banklarining yashil moliyalashtirishdagi ishtiroki:

O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda yashil moliyalashtirish yo'nalishida faol harakatlarni boshladi. Bu borada xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan loyihalar, milliy moliya institutlarining strategik rejalarida barqaror moliyalashtirishga oid bo'limlar kiritilayotgani ijobiy ko'rsatkich sifatida baholanmoqda. Xususan, quyidagi uchta moliyaviy institut O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning shakllanishida muhim rol o'ynamoqda:

1. Entrepreneurship Development Company (EDC)

Entrepreneurship Development Company 2026-yilgacha o'z kredit portfelining kamida 35 foizini yashil kreditlarga ajratishni maqsad qilgan. Ushbu maqsad doirasida quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- qayta tiklanuvchi energiya (quyosh va shamol elektr stansiyalari);
- energiya samaradorligini oshirish;
- chiqindilarni boshqarish tizimlarini moliyalashtirish;
- ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish.

Ushbu tashabbus Jahon banki va Green Finance Platform tomonidan moliyaviy strategiya sifatida e'tirof etilgan. EDC o'z faoliyatida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ko'rsatkichlarini ham bank ichki audit jarayonlariga joriy etish bo'yicha ish olib bormoqda.

2. Biznesni rivojlantirish banki

Biznesni rivojlantirish banki 2024–2025-yillar oralig'ida o'zining barqaror moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqishni boshlagan.

Asosiy yo'nalishlar:

- kichik va o'rta biznes uchun ekologik toza loyihalarni moliyalashtirish;
- yashil texnologiyalarga kredit liniyalarini ochish;
- yashil obligatsiyalar bozorida ishtirok etishga tayyorgarlik.

Bank 2023-yilda Agrobank bilan hamkorlikda agrotexnika sohasida barqaror energiya texnologiyalarini moliyalashtirish bo'yicha pilot loyihani amalga oshirdi. Ushbu loyiha agrobank.uz portalida rasman e'lon qilingan.

Bundan tashqari, bank "Green Taxonomy" konsepsiyasini amaliyotga joriy qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi bilan hamkorlikda ishlar olib bormoqda.


3. Uzbekistan Mortgage Refinancing Company

Uzbekistan Mortgage Refinancing Company 2025-yil oxirigacha O'zbekistonda birinchi korporativ yashil obligatsiyani chiqarishga tayyorlanmoqda. Bu istiqbolli qadam bo'lib, mamlakatda kapital bozorlar orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish imkonini beradi.

Loyiha xususiyatlari:

- yashil obligatsiyalar daromadlari orqali energiya samaradorligi yuqori bo'lgan uy-joy qurilishlarini moliyalashtirish;
- xalqaro investorlarga ochiq bo'lgan yashil kapital bozori segmentini yaratish;
- Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tavsiyalari asosida yashil obligatsiyalar konsepsiyasini ishlab chiqish.

Ushbu tashabbus Jahon bankining openknowledge.worldbank.org va blogs.worldbank.org saytlarida e'lon qilingan hisobotlarda qayd etilgan.



1-rasm. 2022-2024-yillarda banklar tomonidan ajratilgan yashil kreditlar hajmi⁴

4 Manba olib borilgan tahlillar natijasida muallif ishlanmasi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

1. Yillik o'sish sur'ati: 2022-2024-yillarda yashil kreditlar hajmi 2,2 barobarga oshgan.
2. Bank motivatsiyasi:
 - ESG portfelni kengaytirish niyatida (EDC, BDB)
 - Ikkinchi darajali obligatsiyalar orqali kapital jalb qilish rejaları (UzMRC)
3. Barriers & tavsiyalar:
 - Huquqiy mezonlar to'liq emas (sub-nationallarga emissiya huquqi yo'q).
 - Bank xodimlari va mijozlar malakasini oshirish zarur; bu borada FAO platformasi yordam bermoqda.

1-jadval. Yashil moliyalashtirish bo'yicha yetakchi banklar⁵

Bank nomi	Yillar	Yashil kreditlar hajmi (mlrd.so'm)	Maqsad / Yuz foiz (%)
EDC	2024	1100	35 % portfel & davom etmoqda
BDB	2024	300	Barqaror moliyalashtirish rejasi
UzMRC	2025	—	Green bond chiqarishga tayyor

O'zbekiston banklari yashil iqtisodiyot sari yo'naltirilgan moliyaviy strategiyalarni shakllantirish bosqichida faol ishtirok etmoqda. Jumladan, Entrepreneurship Development Company (EDC), Biznesni rivojlantirish banki (BDB) va Uzbekistan Mortgage Refinancing Company (UzMRC) kabi moliyaviy institutlar ekologik barqarorlikni moliyalashtirishga doir muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Mazkur banklar tomonidan ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini o'z ichki kredit siyosatiga integratsiya qilish, "yashil" kredit liniyalari va obligatsiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror moliyalashtirish bo'yicha institutsional hujjatlarni ishlab chiqish kabi amaliy qadamlar tashlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2022–2024-yillar mobaynida tijorat banklari tomonidan ajratilgan yashil kreditlar hajmi yil sayin ortib bormoqda. Bu o'sish mamlakatda barqaror energetika, chiqindilarni boshqarish, ekologik toza transport, resurs tejankor texnologiyalar va boshqa yashil yo'nalishlarda bozor talabining ortib borayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, bu tendensiya banklar tomonidan ekologik risklarni baholovchi tizimlar joriy etilayotganidan hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengayib borayotganidan darak beradi.

Biroq mavjud ijobiy natijalarga qaramay, bir qator tizimli muammolar hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Xususan:

- huquqiy va normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ya'ni yashil moliyalashtirish mezonlari, standartlari va monitoring mexanizmlari bo'yicha yagona tartibotning mavjud emasligi;
- bank xodimlari va mijozlar orasida yetarli bilim hamda malaka darajasining yetishmasligi, bu esa "yashil" loyihalarni aniqlash va baholashda noaniqliklarga olib kelmoqda;
- investitsiya hajmlarining nisbatan pastligi, ya'ni kapital bozori orqali jalb qilinayotgan moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, davlat kafolatlari va risklarni boshqarish mexanizmlarining cheklanganligi.

Ushbu holatlar mamlakatda yashil iqtisodiyotni to'laqonli rivojlantirish va xalqaro yashil moliya bozorlariga integratsiyalashuvni sekinlashtirishi mumkin. Shu bois, quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlar zarur:

- bank sektorining strategik rolini mustahkamlash, ya'ni tijorat banklarini ekologik mas'uliyatli moliyaviy institutlar sifatida shakllantirish;
- yashil moliyalashtirish bo'yicha maxsus regulyativ hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shu jumladan O'zbekiston yashil taksonomiyasini qabul qilish;
- xalqaro moliyaviy institutlar bilan kooperatsiyani kengaytirish orqali tajriba almashish, moliyaviy resurslar va texnik yordamni jalb qilish;
- banklar o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirish hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlari bo'yicha reyting tizimlarini joriy etish, bu orqali moliyaviy tashkilotlarni ekologik barqarorlik yo'lida faol harakatlanishga rag'batlantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot sari o'tish bank tizimi ishtirokisiz amalga oshishi mumkin emas. Tijorat banklarining ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil sifatida

⁵ Manba olib borilgan tahlillar natijasida muallif ishlanmasi.



qaralishi lozim. Normativ-huquqiy baza va institutlararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish esa ushbu jarayonni tezlashtiradi hamda uning samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi choralar muhim hisoblanadi:

– bank xodimlari uchun yashil moliyalashtirish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish lozim. Bu ularning mazkur sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshiradi;

– banklarning ichki siyosatlarida ekologik mezonlar inobatga olinishi va ularni qaror qabul qilishda majburiy element sifatida belgilash zarur;

– hukumat tomonidan yashil loyihalarni moliyalashtiruvchi banklar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar joriy qilinishi lozim. Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, texnik yordam dasturlaridan foydalanish, yashil reyting tizimlarini joriy qilish orqali banklarning ushbu yo'nalishdagi faolligini oshirish mumkin.

Tijorat banklari yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda ikki asosiy yo'nalishda ishtirok etishi mumkin:

– birinchidan, ular ekologik jihatdan barqaror loyihalarga kredit ajratish orqali to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi institut sifatida maydonga chiqadi;

– ikkinchidan, ular ekologik risklarni inobatga olgan holda o'z investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilishi hamda "yashil" obligatsiyalar va boshqa barqaror moliyaviy vositalarni joriy qilishi orqali bozorga ishonch uyg'otadi. Masalan, O'zbekistonda ayrim yetakchi banklar tomonidan "Green Finance Framework" yoki "Sustainable Lending Criteria" hujjatlari asosida yashil kreditlar ajratilishi boshlangani ijobiy qadam sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bank tizimining o'rni katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish jamiyatida raqobatbardoshlikni ta'minlash va mijozlar ehtiyojlarini qondirish uchun banklar yangi xizmat standartlarini joriy etishi hamda innovatsion moliyaviy yechimlarni taqdim etishi zarur. Banklar zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni qo'llash, raqamli xizmatlar infratuzilmasini yaxshilash hamda ekologik barqaror bank amaliyotlarini yo'lga qo'yish orqali yashil iqtisodiyotga bevosita hissa qo'shishi mumkin. Shuningdek, bank sektorini strategik rivojlantirish va mijozlarning qoniqishini ta'minlash barqaror iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi.

Kelajakda bank tizimi nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki ekologik mas'uliyatni ham kuchaytirishga yo'naltirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3593541>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6303230?ONDATE=03.12.2022%2000>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishiga bag'ishlangan 2023-yilgi sammitidagi nutqi. – 2023.
5. Hukumat va xalqaro tashkilotlar hisobotlari ma'lumotlari:
6. O'zbekiston Respublikasi hukumatining yashil iqtisodiyotga oid rasmiy strategiya va hisobotlari;
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bo'yicha hisobotlari;
8. Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining yashil moliyalashtirish bo'yicha hisobotlari
9. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi. Global moliyaviy barqarorlik hisobotlari. – 2021.
10. Jahon banki. Rivojlanayotgan bozorlarda xalqaro kreditlarning roli. – Jahon banki nashrlari, 2020.
11. Herman E. (1994). For the Common Good: Redirecting the Economy toward Community, the Environment, and a Sustainable Future. 2-nashr. – Beacon Press.
12. IMV (2022). Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. Hisobot. – 2022. – 3-bet.
13. Robert Costanza (2016). Modelling and measuring sustainable wellbeing in connection with the UN Sustainable Development Goals. – 18 p.
14. Suaad Hadi Hassan Al-Taai (2021). Green economy and sustainable development. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – 5 p.
15. Vaxabov A., Xajibakiyev Sh. "Yashil iqtisodiyot". Darslik. – Toshkent: "Universitet", 2020. – 16-bet.
16. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz>
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti: <https://cbu.uz/oz/statistics/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>